



TEMIR YO‘L TRANSPORTI TASHISH JARAYONIDA SODIR BO‘LGAN BAXTSIZ HODISALAR

Butunov Dilmurod Baxodirovich

Toshkent davlat transport universiteti professori, PhD, professor

[*dilmurodpgups@mail.ru*](mailto:dilmurodpgups@mail.ru)

Ergashev Shaxzod Farxod o‘g‘li

Toshkent davlat transport universiteti magistratura talabasi,

[*shaxzode8360@gmail.com*](mailto:shaxzode8360@gmail.com)

Tulaganov Dilmurod Dilshod o‘g‘li

Toshkent davlat transport universiteti magistratura talabasi,

[*mzaalevskiy@mail.ru*](mailto:mzaalevskiy@mail.ru)

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tashish jarayonlari bilan bog‘liq TOP-10 baxtsiz hodisalar o‘rganib chiqilib, ularning kelib chiqish sabablari hamda bu sabablar oldini olish haqida atroflicha xulosalar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *yo‘lovchi, yo‘lovchi poyezdi, halokat, avariya, baxtsiz hodisa.*

Ma‘lumki temir yo‘l transportining asosiy vazifasi bu – yuk va yo‘lovchilarni harakat xavfsizligini saqlagan holda o‘z manzillariga sifatli va o‘z vaqtida yetkazib qo‘yishdan iboratdir [1]. Biroq, ishlab chiqarish jarayonida poyezdlar harakatini tashkil qilishda turli baxtsiz hodisalar (poyezdlar halokati, avariya, ishdagi brak holatlari) sodir bo‘lib turadi. Shu munosabat bilan temir yo‘l transporti o‘zining dastlabki yukini va yo‘lovchisini tashishni boshlagan davrdan to shu kungacha bo‘lgan muddat mobaynida sodir bo‘lgan TOP-10 baxtsiz hodisalar o‘rganildi [2-5]. Ular quyidagilardan iborat:



Peraliya. Shri-Lanka. 2004-yil. 2004-yil Shri-Lanka aholisi uchun fojiali yil bo'ldi. Hind okeanida boshlangan zilzila katta to'fonni keltirib chiqardi va natijada okean qirg'og'i bo'ylab o'tgan temir yo'l relslari orqali harakatlanayotgan poyezd halokatga uchradi. Fojia natijasida 2000 ga yaqin yo'lovchilar halok bo'ldi.



Bixar shtati. Hindiston. 1981-yilda Hindistonning Bixati shtatida tabiiy



ofat, ya'ni kuchli shamol Bagmati daryosi ustidagi ko'prikdan o'tayotgan poyezdning 7 ta vagonini ag'darib yubordi va natijada vagondagi 200 ta yo'lovchi halok bo'ladi.

Qolgan yo'lovchilar, esa bedarak yo'qolganlar ro'yxatiga kiritiladi.



Uttar-Pradesh shtati. Hindiston. 1995-yili

Hindiston Uttar-Pradesh shtatida sodir bo'lgan voqea eng dahshatli fojialar ro'yxatiga kirdi. Odamlar bilan to'la ikki poyezd to'qnashganidan so'ng, kutilmaganda portlash sodir bo'ladi va natijada 573 yo'lovchi halok bo'ldi. Bu yerda poyezd to'qnashuviga poyezd dispetcherining noto'g'ri qarori sabab bo'lgan bo'lsa, portlash kelib chiqishiga temir yo'l izi yaqinidan o'tgan gaz quvuridan sizib chiqqan gaz sabab bo'lgan.

Al-Ayyat shahri. Misr. 2002-yili Al-Ayyat shahri temir yo'lida mashinist



poyezd tarkibida kelib chiqqan yong'inni payqamagan holda harakatlanishi oqibatida 383 yo'lovchi vafot etgan. U yong'inni sezganida, 7 ta vagon allaqachon yonib ulgurgan edi. Yong'in yo'lovchilardan birida bo'lgan ko'chma gaz

yoqilg'isidan kelib chiqqan deb taxmin qilingan. Qurbonlar sonining keskin ortishi poyezdning haddan tashqari yo'lovchilar bilan to'lganligi bilan izohlanadi.



Sind provinsiyasi. Pokiston. 1990-yili Pokistonning Sind provinsiyasida 16 ta vagondan iborat yo‘lovchi poyezdini Sangi stansiyasi navbatchi noto‘g‘ri ochilgan marshrut bo‘yicha band yo‘lga qabul qiladi va natijada ushbu yo‘lda turgan yuk poyezdi tarkibi bilan tuqnashuvi oqibatida 304 ta yo‘lovchi halok bo‘ladi. To‘qnashuvning oldini olishning imkoni bo‘lmagan va stansiyaning uch nafar xodimi qotillikda ayblanib sud jaiobgarligiga tortilgan.




Nishopur. Eron. 2004-yili Nishopur yaqinidagi Xayyom qishlog‘ida 51 ta vagondan iborat yuk poyezdi tormoz boshmoqlari bilan yetarli miqdorda maxkamlanmaganligi oqibatida o‘z-o‘zidan harakatlana boshlaydi va 20-km ga borganda tezlik oshib ketishi natijasida 10 taga yaqin vagon ag‘darilib ketadi. Natijada kuchli yong‘in kelib chiqadi va yong‘inni o‘chirish ishlari vaqtida kuchli portlash sodir bo‘lishi oqibatida o‘t o‘chirish ishlariga jalb etilgan guruhdagi 300 kishi halok bo‘ladi.



Dodoma viloyati. Tanzaniya. 2002-yili Tanzaniyaning Dodoma viloyatida yo‘lovchi poyezdi peregonda keskin qiyalikdan tushishda tormoz tizimida kelib chiqqan nosozlik tufayli poyezdni to‘xtata olmaydi va natijada katta tezlikda harakatlanib qarama-qarshi yo‘nalishdan harakatlanib kelayotgan yuk poyezdi bilan to‘qnashib ketadi. Natijasida yo‘lovchi poyezdi tarkibidagi barcha 22 ta vagon relsdan chiqib ketdi va 200 ta yo‘lovchi halok bo‘ladi.



Renchxon stansiyasi. KXDR. 2004-yili KXDR dagi Renchxon stansiyasida mashinistlarning e‘tiborsizligi tufayli ikkita poyezdning (biri – neft, ikkinchisi – suyultirilgan gaz) to‘qnashuvi natijasida poyezdlar halokati sodir





bo'ladi hamda oqibatida 170 ga yaqin kishi halok bo'ldi. Bundan tashqari 1700 kishi jarohat oladi. ko'plab taqdirlar xazon bo'ldi.

London shahri. Buyuk Britaniya. 1952-yili London shahrida ertalabki tig'iz vaqtdagi uchta poyezdning to'qnashuvi natijasida 112 kishi halok bo'ladi. Bunga sabab xavoning keskin sovib ketishi natijasida tuman tushganligi bo'ldi, shu tufayli



shahar atrofi poyezdi jadvaldan 7 daqiqaga kechikdi, tezyurar poyezd esa svetaforning sariq ko'rsatkichidan o'tib, o'z vaqtida tormozlashga ulgurmay to'qnashuv yuzaga keldi. To'qnashuv oqibatida bir nechta vagon, ekspress poyezdi harakatlanayotgan qo'shni yo'lga chiqib ketishi oqibatida jabrlanganlar soni yanada oshdi.

Santiago-de-Kompostela. Ispaniya. 2013-yil Renfi kompaniyasiga



tegishli elektropoyezd Madrid-Ferrol yo'nalishida harakatlanib ketayotgan vaqtda halokatga uchraydi va voqea joyida 80 kishi xalok bo'ladi. Bunga sabab qilib poyezd mashinistining keskin egrilikka ega

uchastkadan 150 km/soat da o'tishi etib keltirilgan.

Yuqorida o'rganilgan ma'lumotlardan shuni xulosa qilish mumkinki, poyezdlar harakatida halokatga quyidagi omillar sabab bo'lgan:

- tabiiy ofat;
- inson omili (poyezd mashinistning e'tiborsizligi, stansiya navbatchisining qo'pol xatosi, poyezd brigadasi xodimlarining o'z ishiga bo'lgan sustkashligi);
- yuk yuklash va tashish qoidalarining buzilishi;
- poyezdlar harakat grafigining buzilishi.



Foydalanilgan adabiyotlar va internet manbalari ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi temir yo‘llaridan texnikaviy foydalanish qoidalari. T.: O‘zdavtemiryo‘lnazorat, 2013 y. – 93 b.
2. https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=31422544&pos=4;-70#pos=4;-70
3. <https://eur-lex.europa.eu/eli/reg/2021/782/oj>
4. <https://ufasch88.ru/inf/top-10-samyh-uzhasnyh-zheleznodorozhnyh-katastrof-v-mire>
5. <https://ru.sputnik.kz/20230305/top-10-samyh-strashnyh-i-krovavyh-zheleznodorozhnyh-katastrof-xxi-veka-foto-32644052.html>